**"O'zsanoatqurilishbank" ATB**
**Boshqaruvining**
**2023 yil ___ ________ dagi**
**_______ – sonli qaroriga**
**-ilova**

## Bank boshqaruvining 2022-yil 15-martdagi 32/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBda bank xizmatlari bo'yicha Tariflar"ga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

**1.** Tarifning "II Jismoniy shaxslar uchun xizmatlar" bo'limi "To'lovlarni qabul qilish" qismi 18-19 - bandlari quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

| T/R | Amaliyot turlari | Miqdor | Izoh |
|---|---|---|---|
| 18. | Kredit va lizing uchun to'lovlar (foizlar):<br>- boshqa tijorat banklariga hamda boshqa mikromoliyalash tashkilotlariga;<br>- "O'zsanoatqurilishbank"ATBning tarmoqlariga. | 1%<br><br>bepul | Komissiya to'lovchidan undiriladi.<br><br>Bunda, mijoz tomonidan imzolangan to'lov hujjati uning yozma topshirig'i hisoblanadi |
| | "O'zsanoatqurilishbank" ATB tarmoqlarida depozit hisobvaraqlari mavjud bo'lgan yoxud depozit hisobvaraqlar ochgan tashkilot va korxonalarning bankdagi hisobvarag'iga to'lovlarni qabul qilish. | bepul | |
| | Soliqlar va yig'imlar uchun, vaqf, xayriya, zakot va boshqalar. | bepul | |
| | Auksion savdolarini tashkil etuvchi idora va tashkilotlari *(auksion savdolarda ishtirok etish)* uchun to'lovlar; | To'lov summasi BXMning 20 barobarigacha bo'lgan summadan 1%, undan oshgan qismi bepul | |
| | Boshqa to'lovlar - *Yangi avtomobillar xaridi uchun (GM Avtosanoat yoki dillerlar depozit hisobvaraqlariga) va turar-joy xonadon sotib olish uchun, jinoyat ishi bo'yicha moddiy zarar hamda garov, boshqa bir martalik to'lovlar.* | | |
| 19. | Kommunal to'lovlar *(Elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gaz, Issiqlik ta'minoti va issiq suv, maishiy chiqindilarni olib chiqish, sovuq suv, suvoqava xizmatlari, HUJMSh majburiy badallari).* | To'lov summasi BXMning 20 barobarigacha bo'lgan summadan 1%, undan oshgan qismi bepul | Komissiya O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Munis" to'lov tizimi orqali mablag' oluvchidan undiriladi. |

«Ўзсаноатқурилишбанк» АТБ
Юридик бошқарма

| | | | |
|---|---|---|---|
| | "Veolia" MChJ hisobiga *(Issiqlik ta'minoti va issiq suv,)*<br><br>Aloqa, televedenie va telekommunikatsiya *(mobil aloqa, shahar telefon tarmog'i, raqamli televedeniya, internet)* xizmatlari uchun. | Mablag' oluvchidan tuzilgan shartnomaga muvofiq | Bunda, mijoz tomonidan imzolangan to'lov hujjati uning yozma topshirig'i hisoblanadi |
| | Elektron raqamli imzo kaliti uchun to'lov.<br><br>Davlat bojlari va ma'muriy jarimalar *(O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga xorijga chiqish va biometrik pasrort berganlik uchun bojlar, Davlat boji va ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar, Kadastr sohasidagi xizmatlar uchun, Davlat chegarasidan xorijiy avtomobillarning o'tish jarayonida to'lanadigan davlat bojlari, Bojxona bojlari, Davlat xizmatlari, notarius, FXDYO va shu kabi boshqa xizmatlar bo'yicha davlat bojlari va yig'imlar, karantin. fitosanitariya va boshqa xizmatlar, yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun to'lanadigan jarima, ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha jarimalar, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi xizmatlar uchun to'lovlar (ro'yxatga qo'yish, ID karta uchun, davlat bojlari va boshqalar), texnik ko'rikdan o'tish, haydovchilik guvohnomasi, avtomashina oynasi tusini qoraytirish (tonirovka), qayta tayorlash va malakani oshirish, metrologiya, gidrologiya va shu kabi xizmatlar, kichik o'lchamdagi kemalarni ro'yxatga qo'yish va texnik ko'rikdan o'tkazish)* uchun to'lovlar va davlat bojlari.<br><br>Ta'lim va sog'liqni saqlash (*test sinovda qatnashish, pedagoglarni navbatdan tashqari attesstatsiyadan o'tkazish uchun yig'imlar)* uchun to'lovlar.<br><br>Maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim nodavlat tashkilotlariga o'qish uchun to'lovlar.<br><br>Boshqalar *(Ijro hujjatlari bo'yicha qarzdorlik, avia, temir yo'l va boshqa jamoat transportlariga chiptalarni xarid qilish va boshqa xizmatlar)* uchun to'lovlar. | To'lov summasi BXMning 20 barobarigacha bo'lgan summadan 1%, undan oshgan qismi bepul | |
| | Maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim davlat muassasalariga, bolalar musiqa va san'at maktablarida o'qish uchun.<br><br>Byudjet muassasalariga rekvizitlar bo'yicha to'lovlar va boshqa xizmatlar uchun.<br><br>Sog'liqni saqlash tashkilotlariga to'lovlar. | To'lov summasi BHMning 40 barobarigacha bo'lgan summadan 0.5%, undan oshgan qismi bepul. | |